KO‘HNA HUZOR YETTI QAVMLI CHOG‘URTMA MAKROKLASTERI VA QAVCHIN ELI CHO‘MPOQ (G‘ABZA) DAVLATCHILIGI: STALINCHA LOKALIZATSIYA MASKANLARIDAN ASL MILLIY TUG‘RO SARI

Soatov Xalil Qudratovich
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tuman «Cho‘g‘urtma» MFY
Keksalar va faxriylar guruhi rahbari, i.f.n.,
«Yangi O‘zbekiston ma’rifatparvari» tanlovi g‘olibi
(Mualliflik sertifikati: № 010553)

Eshqobilova Hurriyat Ibragimovna
Qarshi shahri 23-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining
biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyoning 6 ming yillik davlatchilik, gidrotexnik va bioekologik madaniyati Ko‘hna Huzor tizimi hamda Cho‘g‘urtma vohasi misolida ilk bor ilmiy asoslab beriladi. № 010553 sonli mualliflik sertifikati va geodezik matritsa ma’lumotlariga tayangan holda, hududdagi «Cho‘g‘urtmaning Ilohy Sanami» (SN-007) forpostlari, Chuichiq tepaligidagi gidravlik sifonlar, Malika Nozin (To‘maris) qabri va Nozin momo tepaligining sun’iy yo‘ldosh koordinatalari (geofazoviy tahlil) vositasida matematik aniqlikda isbotlanadi. Tadqiqotda sovet imperiyasining tarixiy «lokalizatsiya» xaritalari izchil tanqid qilinadi. Abu Rayhon Beruniy merosi asosida Turondagi «Ayol avliyolar kulti»ning geosiyosiy masshtabi ochib berilib, Malika To‘morning G‘abza (O‘g‘iz) qavmiga mansubligi va sof turkiy-o‘zbek davlatchiligi poydevori ekanligi tiklanadi. «Temur tuzuklari»dagi Huzor kengashi, Qavchin alifbosi va numizmatik tangalar tahlili orqali o‘zbek millatining autoxtonligi isbotlanadi. Dala tadqiqotlarida aniqlangan SN-003 raqamli uchli qalpoqli Sak amiri sopol sanami va kobalt sirli SN-003-O1 chiroqdon majmuasi yunon manbalaridagi Gabza bekati aynan shu voha ekanligini va Iskandar Maqduniy mag‘lubiyati tarixini, shuningdek, Markaziy Osiyoda islomgacha bo‘lgan zargarlik, kimyo va suv ta’minoti madaniyati yuksak bo‘lganini ashyoviy verifikatsiya qiladi. Interdisiplinar yondashuv asosida Cho‘g‘urtma vohasi biomuhiti, tana aylanasi 10 metrdan oshiq ko‘hna «Chin marvarid tuti» (Morus alba L.) va yovvoyi qora murch dendroxronologik tahlil qilinib, «Mochin» madaniyati hamda ipakchilik tarixi biologik indikatorlar bilan muhrlanadi.

Kalit so‘zlar: Ko‘hna Huzor, Cho‘g‘urtma, Cho‘mpoq (G‘abza), Malika Nozin, Iskandar Maqduniy mag‘lubiyati, Sak amiri sanami (SN-003), kobalt chiroqdon, Qavchin eli, Shoturtepa, Chuichiq tepaligi, Chin marvarid tuti, GIS-matritsa, relikt murch, OAK, TDT, Yetti qavm tug‘rosi.

Аннотация: В статье на примере системы Древнего Хузара и Чогуртминского оазиса впервые научно обосновывается 6-тысячелетняя история государственности, гидротехнической и биоэкологической культуры Центральной Азии. На основе авторского сертификата № 010553 и геодезической матрицы, с помощью спутниковых координат (геопространственного анализа) с математической точностью доказывается

расположение форпостов «Божественного кумира Чогуртмы» (CH-007), гидравлических сифонов на холме Чуичик, гробницы царицы Нозин (Томирис) и холма Нозин-мома.

В исследовании последовательно подвергаются критике советские имперские карты «локализации». На основе наследия Абу Райхана Беруни раскрывается геополитический масштаб «культа святых женщин» в Туране, восстанавливается принадлежность царицы Тумор к племени Габза (Огуз) как основа чисто тюркско-узбекской государственности. Автохтонность узбекской нации доказывается через анализ Хузарского кенгаша в «Уложениях Темура», Кавчинской письменности и нумизматических монет.

Особое значение имеет введение в научный оборот комплекса CH-003 (терракотовый идол Сакского амира в остроконечном головном уборе, кобальтовый светильник CH-003-O1 и кубаши CH-003-O2), который вещественно верифицирует локализацию упомянутой в античных источниках станции Габза в данном оазисе и факт поражения войск Александра Македонского защитниками семи крепостей Чумпока.

На основе междисциплинарного подхода проведён дендрохронологический анализ биосреды Чогуртминского оазиса, древнего «Китайского жемчужного тутовника» (Morus alba L.) с обхватом ствола более 10 метров и дикого чёрного перца, что биологическими индикаторами закрепляет историю шелководства и культуры «Мочин».

Ключевые слова: Древний Хузар, Чогуртма, Чомпок (Габза), поражение Александра Македонского, идол Сакского амира (CH-003), царица Нозин, племя Кавчин, Шотуртепа, холм Чуичик, китайский жемчужный тутовник, ГИС-матрица, реликтовый перец, ВАК, ОТГ, тамга семи племён.

Abstract: For the first time, this article provides a scientific substantiation of the 6,000-year-old statehood, hydrotechnical, and bioecological culture of Central Asia, using the Ancient Huzar system and the Chogurtma oasis as a case study. Based on authorship certificate No. 010553 and a geodesic matrix, the locations of the outposts of the “Divine Idol of Chogurtma” (SN-007), hydraulic siphons on Chuichik Hill, the tomb of Queen Nozin (Tomiris), and Nozin Moma Hill are established with mathematical precision through satellite coordinates (geospatial analysis). The study consistently critiques Soviet imperial “localization” maps. Drawing on the heritage of Abu Rayhan Biruni, the geopolitical scale of the “cult of female saints” in Turan is revealed, and Queen Tumor’s lineage to the Gabza (Oghuz) tribe is restored as the foundation of Turkic-Uzbek statehood. The autochthonous nature of the Uzbek nation is demonstrated through an analysis of the Huzar Council in the “Institutes of Timur”, the Qavchin alphabet, and numismatic coins. Crucially, the study introduces the archaeological complex SN-003 (a terracotta idol of a Saka amir in a pointed headdress, the cobalt-glazed lamp SN-003-O1, and the red-clay kubashas SN-003-O2), which materially verifies the exact location of the ancient station Gabza, mentioned by Hellenistic historians, within this oasis, confirming the historical defeat of Alexander the Great’s forces by the defenders of the seven Chumpok fortresses. Applying an interdisciplinary approach, a dendrochronological analysis of the bioenvironment of the Chogurtma oasis was conducted, focusing on the ancient “Chinese Pearl Mulberry” (Morus alba L.), with a trunk

circumference exceeding 10 meters, and wild black pepper, thereby validating the history of sericulture and the “Mochin” culture through biological indicators.

Keywords: Ancient Huzar, Chogurtma, Chompok (Gabza), Defeat of Alexander the Great, Saka Amir Idol (SN-003), Queen Nozin, Qavchin people, Shoturtepa, Chuichik Hill, Chinese Pearl Mulberry, GIS matrix, relict pepper, HAC, OTS, Tugra-tamga of the Seven Tribes.

I BOB. KIRISH VA MAVZUNING DOLZARBLIGI

1.1. Muammoning qo‘yilishi va soxta lokalizatsiya asoratlari. Ko‘hna Huzor (G‘uzor) hududidagi tarixiy-madaniy obyektlarni tizimli tadqiq etish va muhofaza qilishdagi asosiy to‘siq — ularning sovet davri mafkurasi asosida yaratilgan sun’iy «lokalizatsiya» xaritalari qolipida qolayotganligidir [12; 13]. Bugungi kunda Musofir ota manzili rasmiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa-da, u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Xojabosh ota, Ulug‘tepa maskanlari hamda Amir Husayn Qavchin qabr toshidagi Turon ramziga aloqador ulkan tarixiy meros ilmiy e’tibordan chetda qolmoqda [14; 21; 22; 24]. Ushbu tizimli muammoning bosh sababi — Samarqand arxeologiya instituti olimlarining eskirgan xarita-xulosalariga tayanib ish ko‘rilayotganidir [7; 15]. Mazkur tadqiqotlarda Ulug‘tepadan Cho‘g‘urtmagacha bo‘lgan yagona tarixiy-madaniy tizim rasmiy xaritalardan sun’iy ravishda uzib qo‘yilgan. Oqibatda viloyat Madaniy meros boshqarmasi ushbu eskirgan xulosalarga asoslanib, Ko‘hna Huzorning 6 ming yillik yaxlit zanjirini va Yetti qavm (O‘g‘iz) ittifoqi izlarini rasman tan olmayapti. «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi viloyat bo‘limi mazkur maskanga yaxlit tarixiy-arxeologik kompleks sifatida emas, balki alohida ziyoratgoh sifatida tor doirada yondashib kelmoqda. Bu esa Cho‘g‘urtma va Xojabosh ota obyektlarini keng qamrovli fundamental tadqiqotlardan uzib qo‘ymoqda. Buning natijasida tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi Xojabosh ota majmuasini tarixiy va madaniy qiymatga ega bo‘lmagan «oddiy fuqarolik qabristoni» deb talqin qilib, o‘z zimmasidagi mas’uliyatdan chekinmoqda [23; 24].

1.2. Mavzuning dolzarbligi va geosiyosiy masshtabi. Ushbu tadqiqotda ilk bor Malika Nozin (To‘maris) qadimiy bekati va Turondagi «Ayol avliyolar kulti» markazining geosiyosiy masshtabi konseptual jihatdan ochib beriladi. Ishda sovet imperiyasi mafkurasi mahsuli bo‘lgan hamda Markaziy Osiyo xalqlarini sun’iy tarixiy-geografik chegaralarga ajratishga xizmat qilgan «lokalizatsiya» xaritalarining salbiy oqibatlari izchil ilmiy tanqid ostiga olinadi. Lokal manfaatlar va idoraviy yondashuvlar tufayli hududning 6 ming yillik yaxlit tarixiy zanjirini inkor etayotgan mahalliy tuzilmalarning metodologik xatolari ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tiladi. Mazkur tarixiy makroklaster Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) makonidagi xalqlarni ajratuvchi emas, balki umumiy o‘tmish va kelajakdagi yagona Ittifoq («bir tug‘») atrofida birlashtiruvchi strategik omil ekanligi ilmiy jihatdan isbotlanadi. Abu Rayhon Beruniy va boshqa qomusiy allomalarning merosiga tayangan holda [2; 3], Turondagi ayol avliyolar kulti shunchaki diniy-mistik tushuncha emas, balki qadimiy davlatchilik hamda siyosiy muvozanatni ta’minlovchi muhim ijtimoiy-institutsional tizim bo‘lganligi ko‘rsatib beriladi.

1.3. Tadqiqotning bosh maqsadi. Ushbu tadqiqot Turkiy Davlatlar Tashkilotining (TDT) «Turk dunyosining umumiy tarixi» konsepsiyasini mahalliy (avtoxton) ashyoviy va manbaviy dalillar bilan boyitishga qaratilgan. Ishning bosh maqsadi — xalqaro turkologlar va tarixchi olimlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan «O‘zbek davlatchiligi shakllanishida Yetti qavm

(O‘g‘iz) ittifoqi haqida ma’lumotlar yetarli emas» degan asossiz qarashlarni Ko‘hna Huzor vohasidan topilgan yangi tarixiy-etnografik, numizmatik va arxeo-geodezik manbalar yordamida ilmiy jihatdan rad etish hamda o‘zbek millatining avtoxtonlik poydevorini qayta tiklashdan iborat.

II BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TAHLILIY TAQQOSLASH

2.1. Geofazoviy va bioekologik integratsiya matritsasi. Sun’iy yo‘ldosh koordinatalari va geodezik chizmalar asosida Ko‘hna Huzor (G‘uzor) Qo‘rg‘ontepa tizimi qa’ridagi «Ko‘kxon shahid mozori» [6; 24] hamda unga tutash Nozin momo tepaligining aniq lokalizatsiyasi belgilandi. Geofazoviy tahlil natijalariga ko‘ra, Malika qabri strategik geodezik uchburchakning yakuniy nuqtasida joylashganligi matematik aniqlikda isbotlandi. Tadqiqotda ushbu manzillarning asl tarixiy ildizlari qadimiy an’anaviy xronologiya va ilk sivilizatsiyalar davridan boshlangan uzviy zanjirga bog‘lanishi bilan bir qatorda, hududning bioekologik barqarorligi hamda tabiiy landshaft evolyutsiyasi bilan uyg‘unlikda, fanlararo (interdisiplinar) yondashuv asosida tahlil etildi.

2.2. Tarixiy topografiya va monografik ma’lumotlar qiyosi. Geodezik matritsa va GPS koordinatalari tizimining ilmiy asoslarini verifikatsiya qilishda (tekshirishda) arxeolog A. Rayimqulov monografiyasining kartografik ma’lumotlaridan qiyosiy foydalanildi (2-chizma). Ushbu tahliliy taqqoslash Ko‘hna Huzor va Qavchin elining o‘zbek davlatchiligi hamda qadimgi turkiy madaniyat areali sifatida umumiy voha geodezik tarmog‘idagi tarixiy o‘rnini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotning interdisiplinar (fanlararo) xususiyati tarixiy topografiya ma’lumotlarini hududdagi ko‘hna bioindikatorlar — dendroxronologik obyektlarning (ko‘hna daraxtlarning) biologik ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash orqali yanada mustahkamlandi.

III BOB. KO‘HNA HUZOR SMART-XARITASINING MUHANDISLIK-BIOLOGIK TAHLILI

3.1. GIS-landshaft xaritasi va raqamli bioekologik tiklanish. «Ko‘hna Huzor — Ko‘hna Turon yuragi» makroklasterining raqamli GIS-landshaft xaritasi (Muallif: X.Q. Soatov, № 010553-sonli Davlat mualliflik guvohnomasi asosida, vektorli qatlam shaklida raqamli formatda ilova qilinadi) tadqiqotning eng muhim amaliy-uslubiy natijasidir (1-chizma). Zamonaviy geodezik matritsalarga asoslangan mazkur smart-xarita oddiy toponimik nomlar to‘plami emas, balki G‘uzor vohasi tarixiy landshafti va bioekologik muhitining GPS koordinatalari asosidagi raqamli geofazoviy rekonstruksiyasidir.

3.2. Smart-xaritaning strategik chiziqlari va bi0muhandislik kommunikatsiyalari. Xaritada aks etgan uchta asosiy strategik yo‘nalish (chiziq) hududning global muhandislik, suv ta’minoti va tabiiy ekotizimlari integratsiyasini GPS koordinatalari vositasida matematik aniqlikda isbotlaydi (1-chizma):

Mualliflik va huquqiy himoya kafolati:
INTERNATIONAL DIPLOMATIC PROPERTY & COPYRIGHT SECURITY
© **Mualliflik va eksklyuziv huquq egasi:** Xalil Qudratovich Soatov, 2026.
Adliya vazirligi Intellektual mulk markazi sertifikati: № 010553.





Qizil chiziq (Buyuk ipak yo‘li): Qadimgi Sharq davlatlarini bog‘lagan, Malika Nozin (To‘maris) bekati bilan tutashgan «Qo‘rg‘oshin karvon yo‘li» magistralidir. Bu yo‘nalish hududda metallurgiya ilk rivojlangan o‘choqlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatib, Qo‘rg‘ontepa atrofidagi karvonsaroy, bozor va xumdon qoldiqlari bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, u tarixan 1 farsaxlik (taxminan 7 km) an’anaviy etnosport marafoni trassasi vazifasini ham bajargan.

- **Sariq chiziq (Qadimiy sopol suv quvurlari):** Shotirtepadan Oqtepa istehkomigacha cho‘zilgan 2 farsahlik (taxminan 14 km) muftali sopol quvurlar (kubashalar) tarmog‘idir. Ushbu yuqori aniqlikdagi agromuhandislik infratuzilmasi Markaziy Osiyoda kam uchraydigan noyob fenomen bo‘lib, hududda yuksak rivojlangan o‘troq saroy sivilizatsiyasi mavjudligidan dalolat beradi.
- **Yashil chiziq (Yer osti gidrotexnik tizimi):** Chuychiq suv havzasi va 150 gektarlik Sak To‘ra ko‘lidan boshlanib, Sichqontepa orqali Oqtepa va Iskifag‘in majmuasiga toza ichimlik suvi yetkazgan koriz tarmog‘idir. Qurg‘oqchil iqlim sharoitida suv muhofazasi va mudofaa (qamal) vaziyatlari uchun mo‘ljallangan ushbu yashirin tizim Cho‘g‘urtma vohasi aholisining yuksak strategik muhandislik tafakkurini ifodalaydi.

IV bob. Ko‘hna Huzor makroklasterining geodezik matritsasi va raqamli tizimi

4.1. Geodezik triangulyatsiya va tashqi tayanch nuqtalarining kodifikatsiyasi. № 010553 sonli Davlat mualliflik guvohnomasi bilan himoyalangan smart-sxema Ko‘hna Huzor vohasining 6 ming yillik harbiy-iqtisodiy va suv ta’minoti tizimining raqamli geodezik

matritsasi hisoblanadi. Tadqiqotning muhim ilmiy yangiligi shundaki, sovet davri xaritalarida bir-biridan tarqoq holda ko‘rsatilgan tarixiy obidalar aslida yagona va yaxlit muhandislik-geodezik tizimni tashkil etadi. Vatan mudofaasi yo‘lida shahid bo‘lgan Amir Husayn Qavchin (Musofir ota) maqbarasi va uning qabr toshidagi asl O‘g‘uz tug‘rosi Cho‘g‘urtma vohasidan tashqarida joylashgan strategik forpost (tashqi Tug‘) vazifasini bajargan. Ushbu tug‘ro markaziy Qo‘rg‘ontepa va Musofir ota ziyoratgohlari o‘qi bilan strategik geodezik aloqani hosil qiladi hamda vohaning xalqaro savdo yo‘laklaridagi avtoxton turkiy davlatchilik maqomini global ilmiy miqyosda isbotlaydi.

4.2. Smart-xaritaning bioekologik va dendroxronologik verifikatsiyasi. Tadqiqotning interdisiplinar (biologiya va tarix integratsiyasi) yo‘nalishi doirasida hammuallif H.I. Eshqobilova tomonidan smart-xarita markazida joylashgan, tana aylanasi 10 metrdan oshiq bo‘lgan ko‘hna «Chin marvarid tuti» (Morus alba L.)ning bioekologik xususiyatlari tahlil qilindi (1-chizma). Ushbu noyob botanik obyekt quyidagi tarixiy va tabiiy jarayonlarning bosh bioindikatori bo‘lib xizmat qiladi:

-**Ipakchilik tarixi:** GIS-xaritaning 4-qo‘rg‘on (38°38'11.50"N / 66°08'58.30"E — Ipakchilik tayanchi), SN-0016 va SN-0019 (urchuq) tayanch nuqtalari bilan tutashgan ushbu ko‘hna tut areali vohada qadimgi «Mochin» madaniyati va o‘troq Turkiy Chinlar davlatchiligi davrida ipakchilik tarmog‘i yuksak rivojlanganini biologik jihatdan muhrlaydi.

-**Mikroiqlim va gidrologiya:** Mazkur daraxtning ko‘p asrlik barqaror vegetatsiyasi Cho‘g‘urtma vohasi Chuychiq tepaligidagi gidravlik sifon va yer osti koriz tizimlari (yashil chiziq) muntazam ishlaganidan, ya’ni Shotirtepa (38°35'36.60"N / 66°12'10.07"E) atrofidagi tuproq osti namligi inson omili tomonidan sun’iy boshqarilganidan dalolat beradi.

-**Etnobotanika:** Hududda aniqlangan relikt yovvoyi qora murch (qalampirsimon butalar) va qadimiy to‘qish moslamalari voha aholisining tabiiy resurslardan foydalanish madaniyati sof avtoxton xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

V bob. Cho‘g‘urtmaning yetti sanami va malika To‘mor (Nozin) merosi

5.1. Etnolingvistik tahlil va jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni. Xalq orasida saqlanib qolgan «Cho‘g‘urtmaning Yetti Sanami» obrazi qadimgi Gabza (O‘g‘iz) qavmi tarixiga tegishli bo‘lib, «Sanam» so‘zi qadimgi turkiy til qatlamlarida «muqaddas timsol», «e’zozlanuvchi siymo» ma’nolarini anglatgan. Ushbu Yetti sanamning bosh siymosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Malika To‘mor (Nozin) obrazi bilan integratsiyalashadi. Yagona tarixiy-geografik manzilda yettita muqaddas tug‘-timsolning jamlanishi jahon tarixshunosligida noyob fenomen hisoblanib, Cho‘g‘urtma vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi hamda Turondagi oliy ayol davlatchiligi markazlaridan biri sifatidagi xalqaro ilmiy maqomini belgilab beradi.

5.2. Geodezik mudofaa va muzeylashtirishning «Parij konsepsiyasi». Bugungi kunda Cho‘g‘urtma hududidagi noyob ashyoviy dalillar va osori-atiqalarni o‘z asl tarixiy o‘rnidan ayirib, tuman markazidagi muzeyga ko‘chirishga bo‘lgan intilishlar ilmiy jihatdan noto‘g‘ridir. Xalqaro muzeyshunoslikdagi «Parij konsepsiyasi» (shuningdek, Rim va London tajribasi, YUNESKOning in situ — «o‘z joyida saqlash» tamoyili) tarixiy eksponatlarni aynan ular aniqlangan tabiiy geofazoviy muhitda muhofaza qilishni izchil talab etadi. Topilmalarni boshqa hududga ko‘chirish vohaning 6 ming yillik yaxlit geodezik matritsa zanjirini va tizimli mazmunini uzib qo‘yadi. Shu sababli Ko‘hna Huzor merosini ko‘chirish emas, aksincha,

ushbu xalqaro model asosida hududning o‘zida ochiq osmon ostidagi global eko-muzey va arxeologik park barpo etish tarixiy-strategik zaruratdir.

VI bob. Ashyoviy-arxeologik va speleo-gidrotexnik dalillar tahlili

6.1. Oliy harbiy-siyosiy boshqaruvning ashyoviy indikatorlari. Dala-qidiruv tadqiqotlari jarayonida Cho‘g‘urtma vohasi madaniy qatlamidan aniqlangan, vazni 158 gramm bo‘lgan, metall va tosh qoplamali nok shaklidagi qo‘mondonlik cho‘qmori (gurzi) oddiy qurol yoki mehnat vositasi emas, balki hududning yuksak strategik-harbiy maqomini belgilovchi muhim ashyoviy indikatordir. Ushbu noyob topilma Ko‘hna Huzor va Cho‘g‘urtma zaminida qadimdan oliy harbiy-siyosiy boshqaruv markazi hamda Qavchin amirlari va lashkarboshilarining bosh qarorgohlari (markaziy shtablari) mavjud bo‘lganligini isbotlovchi birlamchi moddiy-ashyoviy dalil hisoblanadi (3-rasm).

6.2. Speleo-arxeologik landshaft va yashirin infratuzilma. № 010553 sonli smart-xarita koordinatalari asosida aniqlangan qadimiy yer osti turar joylari va mudofaa-koriz tizimi qoldiqlari vohaning yuksak muhandislik darajasini verifikatsiya qiladi. Ushbu murakkab speleo-arxeologik obyekt arid (qurg‘oqchil) iqlim sharoitida suv resurslari muhofazasini ta’minlash hamda tashqi muhit tahdidlari va qamal paytlarida aholining muhofazalanishi uchun maxsus muhandislik loyihasi asosida barpo etilgan bo‘lib, hududdagi o‘troq sivilizatsiyaning mustahkam poydevori hisoblanadi [5; 11].

VII bob. O‘zbek davlatchiligining bosh bo‘g‘ini: Ko‘hna Huzor shajarasi tarixiy zanjiri

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi tomonidan muhrlangan raqamli reyestr ma’lumotlari Ko‘hna Huzor vohasi davlatchiligi va GIS-landshaftini uchta asosiy tarixiy-strategik bosqich zanjiri asosida tizimlashtirish imkonini beradi:

1. Birinchi bosqich: Ildiz — an’anaviy tarixiy-genealogik xronologiya (Ilk davr): [5; 11]

-Turk mozori maqbarasi: An’anaviy shajaralarda bayon etilgan Turkning muqaddas qadamjosi (geodezik oliy nuqtasi) bo‘lib, hududning avtoxton (tub) etnik o‘zagini belgilaydi [23; 24].

-Qo‘rg‘ontepa (Ko‘hna Turon yuragi): Markaziy GIS o‘qida ilk bor milliy davlatchilik tug‘i ko‘tarilgan oliy siyosiy va harbiy qal’a-istehkom markazidir.

-Otashparastlar mozori va Sichqontepa: Islomgacha bo‘lgan (zardushtiylik) davrida Ko‘hna Huzorda avtonom ijtimoiy boshqaruv va yuksak moddiy madaniyat mavjudligini ko‘rsatuvchi qadimiy arxeologik manzillardir.

-Tug‘ ko‘targan so‘fiylar saylgohi: Milliy ozodlik ruhi, ma’naviy qadriyatlar mezoni va sof avtoxtonlik muhiti saqlangan muqaddas madaniy maskan.

-Ko‘kxon shahidi mozori va Ko‘ktosh: Ko‘kxon urug‘i jangchilari xotirasiga qo‘yilgan, hududdagi qadimiy urug‘doshlik va qahramonlik tarixini isbotlovchi maxsus tosh-belgi (epigrafik meros) hisoblanadi.

2. Ikkinchi bosqich: O‘rta sistema — Qavchin eli tizimi (Shaharsozlik va Ittifoq):

Yetti qavm qo‘rg‘oni: Yetti asosiy urug‘ning o‘zaro harbiy-siyosiy, iqtisodiy va davlatchilik ittifoqi (Oliy Qurultoy maskani) joylashgan, vohaning markaziy yadrosini tashkil etgan mustahkam qal’adir [23; 24].

-Qovchin eli shahri: Mazkur Ittifoq zaminida yuksalgan hamda Amir Temur davrida saltanat qo‘shinining asosiy harbiy-siyosiy ustunlaridan birini tashkil etgan, «Temur tuzuklari»da alohida e’tirof etilgan qadimiy turkiy-o‘zbek shaharsozlik markazi hisoblanadi [1; 5].

-Shoturtepa: Sovet davri mafkuraviy yondashuvlari ta’sirida kartografiyada sun’iy ravishda «Shutur» (tuyalar to‘xtash joyi) deb kamsitib talqin qilingan, aslida esa oliy harbiy unvon egalari — jilovdorlar va lashkarboshilar qarorgohi («Shoh-tur» / «Shoh-turg‘on») bo‘lganligi isbotlangan muhim strategik obyekt.

-Qadim Suboh (O‘liktepa) va Davlat Zarbxonasi: Madaniy qatlamlardan To‘ra-Malika tasviri tushirilgan qadimiy timsollar va noyob numizmatik tangalar aniqlangan zarbxona qoldiqlari bo‘lib, Ko‘hna Huzorning avtonom moliyaviy tizim va iqtisodiyotga ega suveren davlat markazi bo‘lganligini ashyoviy jihatdan tasdiqlaydi.

3. Uchinchi bosqich: Oxirgi bekat — To‘ram To‘ra-Malika tizimi (Mudofaa):

-Nozin malika (To‘ra-Malika) tepaligi: Yaxlit GIS-xaritaning eng chekka va hal qiluvchi mudofaa nuqtasida joylashgan bosh forpostdir (12, 13-rasmlar). Xalq etnografiyasida ushbu ayol hukmdor asrlar davomida sof turkiy unvon bilan «To‘ra-Malika» («To‘ram») yoki «Amirim» deb yuksak e’zozlab kelingan.

-«Turkning singlisi» rivoyatining biologik-tarixiy mohiyati: Ushbu qadimiy folklor namunasi vohada sof turkiy qarindoshlik va davlatchilik zanjirining tarixan uzilmaganini anglatadi. Ilmiy deshifrovka (talqin) Nozin malikaning tashqaridan kelgan begona etnik guruh vakili emasligini, balki aynan shu zaminda shakllangan ilk Turk qavmining o‘z farzandi, To‘xmo‘na va Cho‘g‘urtma vohasining asl tub (avtoxton) egasi ekanligini biologik va tarixiy dalillar bilan yakuniy muhrlaydi.

VIII bob. Botanika va tarixiy geografiya integratsiyasi (interdisiplinar tahlil)

8.1. Relikt flora va avtoxtonlikning biologik indikatorlari. Huzor vohasi madaniyatining sof mahalliy (avtoxton) ekanligini isbotlovchi inkor etib bo‘lmas biologik dalillardan biri — To‘xmo‘na bog‘lari va qadimiy ariqlar bo‘ylarida yovvoyi hamda relikt holatda uchraydigan qalampirsimon murch butalaridir (4-rasm). Sharq mumtoz manbalari, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida, Hofizi Abru va Zahiriddin Ma’rashiy solnomalarida Turon vohalarining iqlimi, flora va faunasi mahalliy davlatchilik tizimi bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganilganligi ushbu ilmiy fikrni to‘liq verifikatsiya qiladi.

8.2. Yevropotsentrik dasht konsepsiyasining rad etilishi. Tadqiq etilgan, ko‘p asrlik tarixga ega «Chin Huzor marvarid tutlari» (Morus alba L., 4, 5, 6, 7-rasmlar) va relikt murch butalari sovet tarixshunosligidagi Turon zamini faqatgina «ko‘chmanchilar istiqomat qiladigan quruq dasht» bo‘lgan degan yevropotsentrik da’volarni butunlay rad etadi. Ushbu dendroxronologik va fitogeografik dalillar vohada bir necha ming yillar avval ham yuksak o‘troq dehqonchilik, bog‘dorchilik va ipakchilik madaniyati mavjud bo‘lganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Mazkur relikt o‘simliklar o‘zbek davlatchiligi poydevorining ushbu zamindagi asl biotarixiy ildizi hisoblanadi [20; 24].

IX bob. Pedagogik-interdisiplinar yondashuv va eko-madaniy tarbiya

9.1. Ko‘hna Huzor bio-tarixiy merosini ta’lim tizimiga integratsiya qilish metodologiyasi. Zamonaviy biologiya va ekologiya ta’limining eng oliy maqsadi — o‘sib kelayotgan yosh avlodda shunchaki nazariy bilimlarni shakllantirish emas, balki ularda milliy

o‘zlikni anglash va sof avtoxton qadriyatlarga asoslangan ekologik madaniyatni tarbiyalashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, Ko‘hna Huzor makroklasteri hududida olib borilgan fanlararo (interdisiplinar) tadqiqot natijalari maktab biologiya kurslaridagi «Botanika», «Umumiy biologiya» va «Ekologiya» bo‘limlarini, shuningdek, «Tarix» va «Kimyo» darsliklarini mahalliy ashyoviy-biologik dalillar bilan boyitishda beqiyos metodologik ahamiyatga ega.

Voha markazida asrlar davomida barqaror vegetatsiya qilib kelayotgan, tana aylanasi 10 metrdan oshiq ko‘hna «Chin marvarid tuti» (Morus alba L.) (5-6-7-8-rasmlar) va hududning relikt florasi hisoblangan qalampirsimon murch butalari (4-rasm) shunchaki botanik obyektlar emas. Ular o‘zbek davlatchiligining bio-tarixiy ildizlari, ajdodlarimizning yuksak agro-muhandislik va ipakchilik madaniyatidan dalolat beruvchi tirik va ko‘rgazmali ta’lim vositalaridir. Ushbu tadqiqotning eng muhim pedagogik yangiligi — № 010553 sonli smart-xaritaning raqamli kodifikatsiyasi, dala ekspeditsiyasi topilmalari va ashyoviy kodlar shodasini ta’lim jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiya qilishdir. Voha qo‘rg‘oni madaniy qatlamidan aniqlangan quyidagi noyob arxeologik kompleks tarix va biologiya fanlaridagi eskirgan qarashlarni tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan inqilobiy manba hisoblanadi:

-Obyekt SN-003 (Sak amiri sopol sanami): Qizil gildan yuksak mahorat bilan ishlangan, uchli qalpoqli Sak amiri qiyofasi. Hajmi 4×3 sm, vazni 4,6 gramm. Ushbu topilmaning davri miloddan avvalgi XII asrdan (Gerodot davrigacha bo‘lgan ilk qatlamlar) tortib, saka-massagetlar madaniyatigacha bo‘lgan uzviylikni ko‘rsatadi. Bu kichik hajmda amir kiyimi va bosh kiyimi detallarining muhrlanishi o‘sha davr Turon hunarmandchilik san’ati yuksak bo‘lganini va Turonning asl egalari bo‘lmish jasur chavandozlarning milliy arxetipini ko‘rsatadi (12-rasm).

-Arxeologik majmua SN-003-O1 (Moviy sirli chiroqdon) va SN-003-O2 (Qizil gilli kubashalar): Ko‘za va ro‘zg‘or buyumlari siniqlari majmuasi. 12,5×2 sm o‘lchamli, yassi va ixcham shaklga ega ushbu chiroqdon harbiy yurishlar va karvonlarda olib yurishga mo‘ljallangan. Chiroq ostidagi noyob moviy rang — qadimgi Turkiston hunarmandchiligida o‘ta qimmatli bo‘lgan kobalt yoki lojuvard asosidagi sir (glazur) bo‘lib, «Turk-Chin» va Temuriylar madaniyatidagi samoviylik ramzidir. Chiroqdagi olov tutuni izlari Mulki Turon amirlarining ushbu nurda kengash qurganini, voha qo‘rg‘onlarida hayot, ilm va ma’rifat (chiroq nuri) uzluksiz davom etganini anglatadi. Sanam tutashgan 1,5 sm qalinlikdagi SN-003-O2 qizil gil quvurlar (kubashalar) esa ming yillar davomida suv bosimiga chidamli bo‘lib, vohaning qadimiy melioratsiya va suv ta’minoti tizimini isbotlaydi (9–13-rasmlar).

-Ushbu bioindikatorlar va raqamli kodlarni ta’lim jarayoniga, xususan, o‘quvchilarning amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga tatbiq etish orqali biz quyidagi strategik pedagogik vazifalarni hal etamiz:

-1. Gabza geo-tarixi va Iskandar Maqduniy mag‘lubiyati deshifrovkasi: O‘quvchilarga yunon tarixchilari tilga olgan afsonaviy Gabza manzilining aynan mana shu Cho‘g‘urtma vohasi ekanligini, Iskandar Zulqarnayndek buyuk fotihning aynan Cho‘mpoq yetti qo‘rg‘oni himoyachilaridan halokatli zarba yegani haqidagi yangi ilmiy xulosalarni o‘rgatish orqali milliy tarix darsliklarini qayta ko‘rib chiqishga zamin hozirlash.

-2. Innovatsion raqamli va kimyoviy integratsiya: GIS-matritsaning SN-003, SN-003-O1 va SN-003-O2 kabi raqamli kodlari va sun’iy yo‘ldosh koordinatalari (4-qo‘rg‘on 38°38'11.50"N / 66°08'58.30"E va Shotirtepa 38°35'36.60"N / 66°12'10.07"E) asosida

o‘quvchilarning GIS-xarita ustida ishlash va kobalt sirini kimyoviy-texnologik tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

-3. Yevropotsentrik qarashlarni inkor etish: 12 asrlik Muqaddas Marvarid Tut joylashgan loyihaning «Nolinchi kilometri» (ARP: 38°37'45.75"N / 66°08'45.07"E) vegetatsiya dinamikasi va SN-003 Sak amiri majmuasi yordamida o‘quvchilarga Turon zamini tarixan quruq dasht bo‘lmaganini, balki bu yerda ming yillar avval ham yuksak o‘troq dehqonchilik, bog‘dorchilik va davlatchilik mavjud bo‘lganini biologik va moddiy dalillar bilan isbotlash.

X bob. Ko‘k marmar sanam va Nozin momo tepaligining GIS-geografik bog‘liqligi

10.1. GIS-modellashtirish va marmar muhr-sanam tahlili. Bosh Amir maqbarasi va muqaddas Tut daraxti oralig‘idagi markaziy maydondan aniqlangan SN-006 raqamli ko‘k marmar muhr-sanami GIS-xaritada Nozin momo tepaligi (g‘arb sektori) bilan punktir chiziq orqali geofazoviy bog‘langan (14-rasm). Ko‘k marmarga tushirilgan «ona va bola» tasviri (Malika To‘maris siymosi) Cho‘g‘urtma vohasidagi ayol avliyolar kultining ildizi qadimiy davlatchilik va «Ona-Xaloskor» milliy ramzi darajasiga ko‘tarilgan mafkuraviy tizimning uzviy davomi ekanligini arxeo-topografik jihatdan qat’iy isbotlaydi.

10.2. Topilmaning ilmiy pasporti va texnik-semiotik tavsifi. Obyekt bosh qo‘rg‘on old qismidagi agro-texnik tuproq ishlari jarayonida aniqlangan. Topilmaning texnik parametrlari: hajmi — 2×2,5 sm, vazni — 7,6 gramm, materiali — ko‘k marmar. Asbobning orqa qismida siniq dastak izlari mavjud bo‘lib, u Cho‘mpoq yetti qo‘rg‘oni bosh ibodatxonasi majmuasiga tegishlidir (15, 16, 17-rasmlar). Topilmaning ilmiy ahamiyati quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

1. Semiotik tahlil: Ko‘k marmarga ishlangan ona va bola ramzi vatan muhofazasi va izchillik timsoli sifatida Malika To‘maris (Nozin) obrazining mahalliy tarixiy arxetipi ekanligini tasdiqlaydi.

2. Etno-madaniy kontinuitet: Kichik hajmli mazkur muhr-sanam Cho‘g‘urtma vohasidagi Nozin momo e’tiqodining ildizlari qadimgi Turon jamiyatidagi onalik va siyosiy jasorat institutlari bilan moddiy-ashyoviy jihatdan bog‘liqligini to‘liq verifikatsiya qiladi.

3. Texnologik daraja: 7,6 grammli marmar yuzasidagi yuqori aniqlikdagi miniatyura o‘ymakorligi Ko‘hna Huzorda toshga ishlov berish va zargarlik san’atining avtonom lokal maktabi rivojlanganligidan dalolat beruvchi muhim indikatordir.

XI bob. Skifo-massaget lokalizatsiyasining tanqidiy deshifrovkasi

11.1. Araxs-O‘zboy o‘zanlari va Tuxmona bog‘larining tarixiy geografiyasi. Mahalliy toponimika va ko‘p asrlik tadqiqotlar xulosalariga ko‘ra, Ahamoniylar hukmdori Kir II va Malika To‘maris (Nozin) o‘rtasidagi mashhur tarixiy jang maydoni G‘uzor vohasi Do‘ltali qishlog‘idagi «Bo‘rontepa» va «Nog‘or» massivlari hududiga to‘g‘ri keladi. Tarixiy geografiya ma’lumotlari Amudaryoning qadimda Kaspiy dengiziga quyilganini va qurigan O‘zboy o‘zani qadimgi manbalardagi Araxs yo‘li ekanligini verifikatsiya qiladi. Bizning tadqiqotlarimizga ko‘ra, Suboh (Jin daryosi) va Huzor daryolari oralig‘idagi ushbu hudud o‘zining boy relikt florasi va noyob mikroiqlimi bilan qadimiy yuksak dehqonchilik hamda bog‘dorchilik markazi bo‘lgan afsonaviy Iram (Tuxmona) bog‘lari arealidan iboratdir [14; 18].

XII bob. Tarixiy manbalar transformatsiyasi va sovet mafkuraviy qatag‘oni oqibatlari

12.1. Iskandar Zulqarnayn siyosati va ilmiy meros transformatsiyasi. Tadqiqotchilarning Iskandar Zulqarnayn yurishlari davrida Turon zaminidagi, xususan, zardushtiylik madaniyatiga oid ilmiy va diniy manbalarning qisman yo‘q qilinishi hamda transformatsiyasi haqidagi tarixiy qarashlari hudud sivilizatsiyasining juda chuqur ildizlarga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan avtonom boshqaruv tizimi, koinot va tabiat qonuniyatlariga oid intellektual meros tashqi omillardan xoli ravishda, sof lokal poydevorga ega bo‘lganligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

12.2. Sayid Akromxon To‘ra boshqaruvi va landshaft qatag‘oni. Buxoro amirligining janubiy sarhadlari nazorati topshirilgan G‘uzor begi Sayid Akromxon to‘ra (1872–1920-yillar oralig‘ida G‘uzor, Chorjo‘y, Boysun, Shahrisabz bekliklarini boshqargan) davrida voha muhim siyosiy markaz hisoblangan. Ushbu davrda Shahrisabz beki bo‘lgan cho‘g‘urtmalik Rayimqul To‘qsabo o‘g‘li Xudoyberdi Qavchin, voha qozisi mulla Bozor so‘fi, Toshqo‘rg‘on noibi mulla Suvonbeklar vohaning boshqaruv eli sof turkiy-qavchin urug‘laridan shakllanganligini isbotlaydi [19; 20]. 1920–1938-yillarda sho‘rolar mafkurasi ta’sirida Cho‘g‘urtmaning Katta mahalla, Juvozxona, Xo‘ja Abullays, Kirtegin mahallalari aholisi qatag‘on qilinib, tog‘li hududlarga majburan surgun etilgan. Ayniqsa, 1989–1990-yillarda yer o‘zlashtirish bahonasida Kirtegin tepasi, Valiy ota mozori, qadimiy karvonsaroy va afsonaviy Tuxmona bog‘lari ekotizimining butunlay tekislab yuborilishi vohada asriy tarixiy-arxeologik landshaft qatag‘oni amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

XIII bob. Nozin momo ziyoratgohiga ilmiy ekspeditsiya va dala tadqiqotlari bayoni

13.1. Ekspeditsiya tarkibi va ashyoviy verifikatsiya. Sho‘rolar davrining qattiq mafkuraviy tazyiqlariga (1920–1960-yillar) qaramasdan, mahalliy aholi xotirasida Shoturlar avlodi, Rustam va Jo‘ra bobolar singari el-yurt fidoyilarining voha tarixi va o‘zligini asrab qolishdagi jasorati saqlanib qolgan. Malika Nozin (To‘maris) mudofaa bekati va muqaddas ziyoratgohiga (20-rasm) uyushtirilgan ilmiy dala ekspeditsiyasi davomida tepalik yuzasidan aniqlangan bebaho ashyoviy dalillar to‘planib, tizimlashtirildi (18, 19, 23-rasmlar). Ushbu dala tadqiqotlarida Katta qishloq mahallasi faollari D. Bekmuradov, I. Norboyev, Xojabosh ota majmuasi bosh nazoratchisi B. Kamolov va tadqiqotchi X.Q. Soatov ishtirok etdi. To‘plangan etnografik ma’lumotlar va jonli so‘rovnomalar GIS-landshaft xaritasining oxirgi yakuniy mudofaa bekatini topografik va kartografik jihatdan mukammal rasmiylashtirishga asos bo‘ldi.

13.2. Ekspeditsiyaning foto-hujjatli verifikatsiyasi:

-20-rasm: Ochiq maydonda aniqlangan qadimiy madaniy qatlam ashyoviy topilmalarini (arxeologik sopol va qadimiy metallurgiya qoldiqlarini) birlamchi morfologik ko‘zdan kechirish va hududiy tahlil jarayoni.



-21-rasm: Nozin malika qabri atrofidagi strategik topografik o‘lchamlarni ruletka yordamida olish jarayoni. Fotosuratda qabr atrofi mahalliy aholi tomonidan blok g‘ishtlar bilan vaqtinchalik konservatsiya qilinganligi aks etgan.

-22-rasm: Tadqiqotchi X.Q. Soatovning voha og‘zaki tarixi (Oral History) va an’anaviy xronologiyasining jonli tashuvchisi bo‘lmish I. Norboyev bilan ilmiy-etnografik suhbat (intervyu) o‘tkazish jarayoni.

XIV bob. Falsafiy-teosofik paradigmalar va allomalar merosi

14.1. E. Rerix va N. Rabg‘uziy konsepsiyalarining integratsiyasi. Yelena Rerixning «Ilm-fan rivoji vaqti kelib diniy hamda teosofik haqiqatlarni aniq asboblar bilan isbotlab beradi» degan mashhur konseptual tezisi [10] bugungi kunda zamonaviy GIS-kartografiya va raqamli geodezik tahlillar vositasida Ko‘hna Huzor misolida o‘z tasdig‘ini topmoqda. Nosiruddin Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy» (1310-yil) asarida bayon etilgan olamning yaratilishi, ilohiy kalom mohiyati va muqaddas geofazoviy markazlar (Ka’ba) sirlari haqidagi kosmogonik qarashlari [4] Ko‘hna Huzor tizimidagi matematik geofazoviy tartib hamda arxitekturaviy lokalizatsiya bilan chuqur falsafiy jihatdan hamohanglik kasb etadi.

14.2. Me’morchilik evolyutsiyasi va handasaviy bezaklar. Ilk islom davri Turon me’morchiligida paxsa va xom g‘isht asosiy qurilish materiali bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa-da, obyektlarning tashqi va ichki qismlariga murakkab handasaviy (geometrik) bezaklar berilgan va me’moriy tizimda ramziy ustunlar markaziy kompozitsion o‘rin tutgan. Yetti qavmli Cho‘g‘urtma makroklasteri qa’rida aniqlangan qadimiy Sak ibodatxonasi qoldiqlari va unga tutash muhandislik infratuzilmasi Turon zaminida handasa (matematika), muhandislik va arxitektura san’ati islom davrigacha bo‘lgan qadimgi davrlardayoq yuksak rivojlanganini isbotlaydi.

XV bob. Tadqiqotning umumiy yakuniy xulosalari va xalqaro takliflar

15.1. Nazariy xulosalar va milliy restitutsiya. Ko‘hna Huzor yetti qavmli Cho‘g‘urtma makroklasteri doirasida olib borilgan kompleks tadqiqotlar quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Voha zaminida eneolit davridan boshlab uzluksiz davlatchilik, ipakchilik va murakkab gidravlik (sifon, koriz) muhandislik sivilizatsiyasi mavjud bo‘lgan. Bu dalillar sovet davri yevropotsentrik maktabining soxta da’volarini ilmiy jihatdan rad etadi.

2. Malika Nozin (To‘maris) qabri va unga tutash Tuxmona bog‘lari etnografik jihatdan mahalliy turkiy-o‘zbek davlatchiligi ildizlari ushbu zaminda avtoxton (tub) shaklda rivojlanganini isbotlaydi.

3. Eski lokalizatsiya xaritalari [7; 12; 13; 15] va ularga tayanayotgan idoraviy sovuqqonlik vohaning 6 ming yillik buyuk merosini sun’iy ravishda parchalab, madaniy qiymatini past baholashga urinmoqda.

15.2. Amaliy takliflar va TDT platformasi integratsiyasi. O‘zbekiston Prezidentining «Mahallabay» siyosatini global platformalar miqyosiga olib chiqish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Xalqaro status berish: Cho‘g‘urtma vohasi va unga tutash Qo‘rg‘ontepa, Xojabosh ota, Nozin momo, Sayid Akromxon To‘ra ko‘li (Sichqontepa), Otashparastlar mozori, Bekmantepa, Ulug‘tepa va Shotirtepa majmualarini tor lokalizatsiya qoliplaridan chiqarib,

ularga TDT miqyosidagi «Turkiy madaniyat va davlatchilikning qadimiy o‘chog‘i» maqomini berish hamda YUNESKO ro‘yxatiga kiritish [21; 23; 24].

2. Raqamli reyestr va makroklaster tashkil etish: № 010553 sonli xarita asosida Cho‘g‘urtma mahallasida raqamli GIS-muzey va arxeologik-ekoturizm makroklasterini barpo etish, TDT davlatlari uchun «Asl O‘g‘uz tug‘rosi va Yetti qavm izidan» nomli xalqaro turistik yo‘nalishni yo‘lga qo‘yish [21; 23; 24].

15.3. Geodezik va ijtimoiy mudofaa tizimining uyg‘unligi. «Yetti sanam» obrazining GIS-matritsa bilan bog‘lanishi — Markaziy Osiyo tarixida mifologiya va aniq geodeziya fanlarining ilk bor uyg‘unlikda davlatchilik xizmatiga yo‘naltirilganini ko‘rsatuvchi fenomen.

Mualliflardan ilmiy izoh: «Qavchin eli va Cho‘mpoq davlatchiligiga oid noyob numizmatik tangalar va ularning to‘liq tavsifi maqola hajmi cheklanganligi sababli, mualliflarning navbatdagi alohida ilmiy tadqiqotida keng yoritiladi».

XIX bob. Ilmiy fotosuratlar va xarita-chizmalar ilovasi / Appendix: Plates and Figures

-1-chizma: «Ko‘hna Huzor — Ko‘hna Turon yuragi» makroklasterining raqamli GIS-landshaft xaritasi va Buyuk ipak yo‘li trassalari (Qizil , Sariq , Yashil chiziqlar tizimi). Muallif: X.Q. Soatov. Davlat guvohnomasi № 010553. Alohida raqamli vektorli xarita qatlami sifatida ilova qilinmoqda.



-2-chizma: Qashqadaryo vohasi VIII–XIV asrlar tarixiy topografiyasining rasmiy kartografik chizmasi (A. Rayimqulovning 2025-yilgi monografiyasidan).[15-434-b.]



3-rasm: Vazni 158 gramm bo‘lgan metall va tosh qoplamali qo‘mondonlik cho‘qmori (gurzi) hududning strategik maqomini belgilovchi muhim ashyoviy dalildir.



4-rasm: Cho‘g‘urtma vohasi qadimiy koriz tizimlari atrofida saqlanib qolgan relikt yovvoyi qora murch (qalampirsimon butalar) fitoindikatori.

5, 6, 7-rasmlar: Tana aylanasi 10 metrdan oshiq bo‘lgan ko‘hna Marvarid tut daraxti (Morus alba L.) — o‘troq ipakchilik madaniyati markazi. Loyihaning «Nolinchi kilometri» (Absolute Reference Point) sifatida ushbu 12 asrlik Muqaddas Marvarid Tut joylashgan 38°37'45.75"N / 66°08'45.07"E koordinatasi qabul qilingan.



8-rasm: Muallif X.Q. Soatov boshchiligida mahalla vakillari tomonidan olib borilgan dala-qidiruv tadqiqotlari davomida topilgan, loy guvaladan yasalgan to‘qqiz guvalali qadimiy to‘qish moslamasi (SN-0016). **9-rasm:** Cho‘g‘urtma vohasi qadimiy rastrub ulanishli sopol kubashalar tarmog‘ining (SN-0017) dala sharoitida o‘rganilishi.



.**10, 11, 12, 13-rasmlar:** Xojabosh ota qabristonining Yettinchi O‘g‘iz qo‘rg‘oni, 466-lahadini qazish jarayonida aniqlangan ashyolarni muallif X.Q. Soatov boshchiligida dala-qidiruv tadqiqotlari va GIS-geodezik punktir o‘lchovlari jarayoni.



Obyekt: Topilma tartib raqami SN-003. Sopol sanam: qizil gilli **uchli qalpoqli Sak amiri sopol chiroqdan, qizil gilli kubasha, ro‘zg‘or buyumlari qoldiqlari.** Hajmi va o‘lchami. Yondosh topilmalar SN-003-O1 va hokazolar bilan nomerlangan.

Davri va qiyofasi: Miloddan avvalgi XII asrdan (Gerodot davrigacha bo‘lgan ilk qatlamlar) tortib, saka-massagetlar madaniyatigacha bo‘lgan uzviylik. **Qizil gildan** ishlangan, **uchli qalpoqli** sanam — bu Turon zaminining eng qadimgi egalari bo‘lmish jasur chavandozlarning asl timsolidir.

Hajmi va vazni: 4 × 3 sm va 4,6 gramm — bunday kichik hajmda amirning kiyimi va bosh kiyimi detallarini aks ettirish o‘sha davr san’atining naqadar yuksak bo‘lganini ko‘rsatadi.

2. Arxeologik majmua (Chiroqdon SN00-01 va Kubashalar SN00-02):

Sopol chiroqdon va ko‘za, kubasha, ro‘zg‘or buyumlari siniqlarini o‘lchash jarayoni: Bu qo‘rg‘onning ichki qismida hayot davom etganini, u yerda ilm va ma’rifat (chiroq nuri) bo‘lganini anglatadi. Bu kubashalar (quvurlar) orqali ulangan tizim qadimiy melioratsiya va suv ta’minoti tizimining bir qismidir. 1,5 sm qalinlikdagi qizil gildan yasalgan quvurlar ming yillar davomida bosimga chidamli bo‘lib kelgan.

3. Gabza va Iskandar Maqduniy mag‘lubiyati:

1. Yunon tarixchilari tilga olgan **Gabza** manzilining aynan mana shu yerda joylashgani — Iskandar Zulqarnayndek buyuk fathkorning aynan shu yerda, **Chumpak yetti qo‘rg‘oni** himoyachilaridan zarba yegani haqidagi xulosalarimiz tarixni qayta yozishga asos bo‘ladi.

2. **Rang va ishlov (moviy-ko‘k):** Sopol chiroqdon ostidagi moviy rang — bu qadimgi Turkiston hunarmandchiligida kam uchraydigan va o‘ta qimmatli hisoblangan **kobalt yoki lojuvard** asosidagi sir (glazur) bo‘lishi mumkin. Bu rang «Turk-Chin» va keyinchalik Temuriylar madaniyatida **samoviylik va ilohiylik** ramzi hisoblangan.

3. **Olov tutuni izlari:** Chiroqdagi tutun izlari uning shunchaki dekorativ ashyo emas, balki **tirik tarix** ekanini isbotlaydi. Bu chiroq nurida o‘sha ulug‘ ajdodlarimiz — Mulki Turon amirlari kengash qurganligi isbotidir.

O‘lcham (12,5 × 2 sm): Bunday yassi va ixcham shakl chiroqni karvonlarda yoki harbiy yurishlarda olib yurish uchun qulay bo‘lishiga zamin hozirlagan.

14-rasm: Muallif X.Q. Soatov tomonidan olib borilgan dala-qidiruv tadqiqotlari va GIS-geodezik punktir o‘lchovlari jarayoni.



15, 16, 17-rasmlar: Bosh Amir maqbarasi va muqaddas Tut oralig‘idan aniqlangan, «ona va bola» ramzi tushirilgan, vazni 7,6 g, o‘lchami 2 × 2,5 sm bo‘lgan SN-006 raqamli ko‘k marmar muhr-sanam va uning siniq dastak izlari.

18-rasm: Buxoro amirligi davrida janubiy sarhadlarni boshqargan Ko‘hna Huzor begi Sayid Akromxon To‘raning arxiv fotosurati.



19-rasm: Nozin malika (To‘ra-malika) tepaligi va Tuxmona bog‘larining sun’iy yo‘ldoshdan olingan onlayn GIS-landshaft xaritasi konturlari.

(38°38'13.28"N66°07'36.82"E)

23-rasm: Dala ekspeditsiyasi davomida Nozin momo tepaligi madaniy qatlamlaridan yig‘ilgan eneolit va antik davrlarga oid sopol idishlar va gidravlik kubasha quvurlari parchalari kompleksi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Amir Temur. Temur tuzuklari (Tarjimon: A. So‘g‘uniy). – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – 248 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Osor ul-boqiya an il-qu run il-xoliya. – Toshkent: Fan, 1968. – 480 b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.
4. Nasriddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy (1310). – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – 288 b.
5. Soatov X.Q. «Ko‘hna Huzor — Ko‘hna Turon yuragi» makroklasterining raqamli GIS-landshaft xaritasi. – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi, Davlat mualliflik huquqi sertifikati: № 010553, 2026.
6. Soatov X.Q. Drevniy Guzar — serdtse Drevnego Turana (Rukopis monografii). — Tashkent–Guzar, 2026. (Gos. svidetelstvo Minyusta RUz № 010553). / Soatov Kh.Q. Ancient Huzar.
7. Rayimqulov A. Qashqadaryo vohasining VIII–XIV asrlar davri shaharlari va tarixiy topografiyasi: Monografiya. – Samarqand: Arxeologiya instituti, 2025. – 434 b.
8. Komarov V.L. Flora SSSR (Flora URSS). Tom 1–30. – Moskva–Leningrad: Akademiya nauk SSSR, 1934–1964.
9. Dubrovitskaya N.I. Regeneratsiya i vozrastnaya izmenchivost rasteniy. – Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR, 1961. – 230 s.

10. Rerix E.I. Pisma (1929–1938). Tom 1. – Minsk: Prameb, 1992. – 448 s.
11. Soatov X.Q. Ko‘hna Huzor — Ko‘hna Turon yuragi (Ilmiy tadqiqot qo‘lyozmasi, nashrga tayyorlanmoqda). — Toshkent–G‘uzor, 2026. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat mualliflik huquqi sertifikati: № 010553).
12. Bartold V.V. Sochineniya po istoricheskoy geografii i istorii Sredney Azii. Tom 1–2. — Moskva: Nauka, 1963–1968.
13. Lunina S.B. Goroda Yuzhnogo Sogda v VIII–XII vv. — Toshkent: Fan, 1984. — 156 s.
14. Soatov X.Q. Cho‘g‘urtma suv loti azal sirlari // Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin). — Toshkent, 2025. — Vol. 10, Issue 1 (Oktyabr). — B. 969–980.
15. Rayimqulov A. Qashqadaryo vohasining VIII–XIV asrlar davri shaharlari va tarixiy topografiyasi: Monografiya. — Toshkent: Ochil nashriyoti, 2025. – 434 b.
16. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma jangnomasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. — B. 312.
17. Soatov X.Q. Sohibqiron Amir Temur va Qarshilik xaloskori Qavchin eli so‘fiysi hamda Keshiklarga daxldor Cho‘g‘urtma manzili qora tugunli sirlari // Fundamental tadqiqotlar jurnali. — Toshkent, 2024. — 11-jild, № 2. — B. 19–32.
18. Soatov X.Q. Moziy qa’ridagi chin Subohi ajdodlar sasi // Fundamental tadqiqotlar jurnali. — Toshkent, 2024. — 11-jild, № 2. — B. 140–149.
19. Soatov X.Q. Ko‘hna Huzor Cho‘g‘urtma qavmlari Saklar ibodatxonasi — olamni munavvar etgan ajdodlar yog‘dusi (Unutilgan tarixiy madaniyatlarimizning qayta kashf etilishi) // Ta’lim va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali. — 2024. — Jild 04, Nashr 05 (May). — ISSN 2181-2624.
20. Soatov X.Q. Qavmi chin eli xojasi marvaridu-tumorlari zaboni shevasidagi Cho‘g‘urtma manzili // Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali. — 2025. — Jild 05, Nashr 01 (Yanvar). — ISSN 2181-2594.
21. Soatov X.Q. G‘uzor vohasi “Cho‘g‘urtma” manzilidagi skif-saka shohi davriga oid “qora tugunli” tarixiy sirlarni ilmiy o‘rganish va muhofaza qilish ortidagi turizm istiqbollari // Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin). — Toshkent, 2026. — Vol. 12, Issue 2 (Mart). — B. 504–523.
22. Soatov X.Q. Samarqand — Go‘ri Amir maqbarasi va Ko‘hna Huzor — Qavchin Eli — Cho‘g‘urtma suvloti — Cho‘g‘urtma “Yetti o‘g‘iz bosh Amir qo‘rg‘onlari va mozori”, «Stalin siyosati», «Qora tugunlari», «Yo‘qotilayotgan Turon xazinasi» // Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin). — Toshkent, 2026. — Vol. 13, No. 2 (13-May).
23. Soatov X.Q. «Cho‘mpoq — Yettinchi O‘g‘iz» majmuasining GIS-landshaft triangulyatsiyasi, tarixiy-etnografik konsepsiyasi va muhofaza qilish muammolari // Vestnik nauki. — Toshkent, 2026. — Vol. 13, № 2. — B. 541–553. (14 avgusta 2026 g.).
24. Soatov X.Q. GIS-landshaftnaya triangulyatsiya, istoriko-etnograficheskaya konsepsiya kompleksa «Kuhna Khuzor — serdtse Drevnego Turana» i razvyazyvanie «chernogo uzla» tyurkskoy istorii v Chumpoke (Gabze) // Vestnik nauki. — Tashkent, 2026. — Vol. 13, № 2. — S. 642–659. (17 avgusta 2026 g.).